

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONSKIMYO FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH

Toychiyeva Inobat

*Shayxontohur tumani kasb-hunar  
maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kimyo o'qitishning interfaol metodlari va uslublari haqida tushunchalar hamda ushbu metodlarning o'quvchilarda kuzatilgan samaradorligi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** umumiy metodlar, dogmatik metod, ilyustrativ metod, evristik metod, texnika.

Hozirgi kun ta'lif jarayonida yuksak intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllanlantirishning istiqbolli yo'llarini izlab topishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada shu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun Samarqand davlat universiteti kimyo fakultetida keng qamrovli ishlar yo'lga qo'yilib, "umumiy va noorganik kimyo" fanini o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish davomli ravishda izchillik bilan amalga oshirib borilmoqda. Kimyoni o'qitishning eng muhim omillaridan biri, uzluksiz o'quv tizimida yangi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ilg'or va boy tajribalarni dars jarayonlarida qo'llash, jumladan, kimyo fanini o'qitishda talabalarining fanni chuqur bilishlariga erishishning muhim omillaridan biri, ma'ruzalarda kimyoviy jarayonlarni aks ettiruvchi turli sxema va jadvallardan, ko'rgazmali qurollardan, maket va kimyoviy moddalardan hamda interfaol usullardan keng foydalanishdir.

Kimyo darslarida o'quvchilarda juda ko'p tajribaviy ko'nikmalar shakllanadi. Turli mavzudagi laboratoriya mashg'ulotlarini amalga oshirishda o'tkazishda, turli zaruriy reaktivlar bilan ishlash va ularni saqlash, qizdirish vositalari bilan ishlash, qurilmalar yig'ish, moddalarni aniqlash, eritmalar tayyorlash va boshqalarni shular qatoriga kiritish mumkin. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llanilayotgan an'anaviy usullar keraklicha samara bermayotganligi, zamon talablariga mos bo'lgan yangicha yondashuv hamda yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amalyotga tatbiq etishni talab etmoqda. Bu jarayonlada oliy ta'lif muassasalarida umumiy va noorganik kimyo fanlaridan o'qilayotgan ma'ruzalar hamda amalyot mashg'ulotlari uchun xos bo'lgan har qanday vaziyat uchun o'rinli va tushunarli bo'lgan usullarni ham ta'lif jarayoniga tatbiq etish zarur.

Kimyo o'qitishning metodlari, shakllari, manbalari o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, kimyo o'qitish nazariyasining eng muhim bo'limlari sanaladi. O'qitish metodi falsafiy nuqtai - nazardan ta'lif jarayonida ta'lif mazmunini harakatlantirish



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shakli bo'lib hisoblanadi. Agar predmetning mazmuni fanning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblansa, o'qitish metodlari o'rganilayotgan fan yoki bilish lozim bo'lgan narsalar metodlarining didaktik ekvivalentidir. Didaktikada fanni o'rganish metodlari va o'qitish metodlari mavjud.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga ta'lim, tarbiya beruvchi ularni rivojlantiruvchi metodlarni optimal tanlashdan iborat.

O'qitish metodi – o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilarining maqsadga qaratilgan birqalikkagi faoliyati bo'lib hisoblanadi. Kimyo o'qitish metodikasining o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud: ular;

1. Kimyo o'qitish mazmuni va metodikasi amaliyotga asoslangan nazariy fan.
2. O'quvchilarining bilish faoliyati tafakkur qirralarini o'stirishga qaratilgan bo'lib, moddaning aniq xossasi o'zgarishi, holati, xossalari, tuzilishi, tarkibi kabilar fikr yuritishga o'quvchilarini o'ylashga olib keladi. Har bir metod ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni qaerda samarali amalga oshirsa o'sha yerda o'sha jarayonda qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Metodlar o'zining qo'llanilishi bilan ham o'quvchilarini tarbiyalaydi. Shu sababli o'qituvchi har bir metodni tanlaganda uchala funksiyani samarali amalga oshirishiga e'tibor berishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Kimyo nazariy asoslari" Toshkent -2005. yil.
2. Toshpo'latov Yu.T., Ishoqov Sh.S. "Anorganik kimyo". T.: O'qituvchi. 1992 y.
3. Бобоев Т.М. Юқори молекуляр биримлар. Тошкент, 2015. 560.
4. Fundamental principles of polymeric materials. Christopher S.Brazel, Stephen L. Rosen. 2012. New Jersey.
5. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
6. I.A.Karimov. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T. O'zbekiston, 1997
7. Umumiy O'rta ta'lim davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 1999, 3-sон
8. I. N. Borisov. Ximiya o'qitish metodikasi. Toshkent, 1958.
9. Z.Asimova. "Kimyo darslarida o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish" T.: 1995.